

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**MA’NAViy-MA’RIFIY ISHLAR TIZIMINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH CHORA-
TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarib bormoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” degan hayotbaxsh g‘oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Bu borada olib borilayotgan muhim ishlarga qaramasdan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi yangilanishlar jarayonida ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning samaradorligiga to‘liq bo‘layotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

Xususan, ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emas, xalqimiz, ayniqsa yoshlarni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmayapti, ushbu yo‘nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi samarali yo‘lga qo‘yilmagan.

Mavjud muammolarni hal etish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarasi va ta’sirchanligini oshirish, ko‘lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish maqsadida:

1. Quyidagilar ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilansin:

ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish;

oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviylikini ta’minlash;

targ‘ibot-tashviqot va tarbiya yo‘nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo‘yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish;

el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas’uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

aholining Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish;

madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san’atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma’naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish;

geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o‘rganish, terrorism, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish.

2. Quyidagilar Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining (keyingi o‘rinlarda — Markaz) qo‘shimcha vazifalari etib belgilanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin:

a) davlat organlari va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik yo‘nalishida:

mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha davlat organlari, nodavlat tashkilotlar va ishchi (ekspert) guruhlarining bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo‘lgan zararli g‘oyalar va ma’naviy tahdidlarning mohiyatini va aholining turli qatlamlariga ta’sirini o‘rganib borish;

yoshlarimiz ongiga salbiy ta’sir etuvchi, ularni g‘oyaviy jihatdan qaram etishga yo‘naltirilgan harakatlarga qarshi samarali kurash olib borish hamda irodali, fidoyi, vatanparvar va

o‘z mustaqil fikriga ega avlodni tarbiyalash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish;

davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, keng ko‘lamli islohotlarning mohiyati, qabul qilingan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazish bo‘yicha davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va takliflar tayyorlash;

b) ilmiy-tadqiqot yo‘nalishida:

ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni amalga oshirishning samarali va ta‘sirchan targ‘ibot texnologiyalari hamda usullarini ishlab chiqish;

ma‘naviy-ma‘rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga doir xorijiy tajribani o‘rganish, shuningdek, bugungi mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash;

maktabgacha ta‘lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta‘lim tizimi, mahalla va boshqa tuzilmalar kesimida ma‘naviy-ma‘rifiy va tarbiyaviy ishlarning monitoringini olib borish, aniqlangan muammolarni hal etish bo‘yicha ilmiy asoslangan tarbiya texnologiyalari, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

ma‘naviy tarbiya va ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni tashkil etish, ularning natijalari amaliyotga tatbiq qilinishini muvofiqlashtirish;

v) targ‘ibot-tashviqot yo‘nalishida:

ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan milliy g‘oya targ‘iboti, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;

sohalar va hududlarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, aniq maqsadga yo‘naltirilgan targ‘ibot-tashviqot dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

aholi, ayniqsa, yoshlarni islom dini va falsafasiga, boshqa diniy konfessiyalarga nisbatan hurmat-ehtirom va bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash, millatlararo totuvlik va o‘zaro mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash bo‘yicha ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni amalga oshirish.

3. Markazning ma‘naviy-ma‘rifiy, ilmiy-ijtimoiy mavzulardagi dolzarb maqolalar, jamoatchilik vakillarining ilg‘or fikrlari, shuningdek, mafkuraviy jarayonlar tahlili, sohaga oid yangiliklarni to‘plash, tayyorlash va tarqatish maqsadida “oyina.uz” elektron portalini tashkil etish tashabbusi qo‘llab-quvvatlansin.

Portal faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun Markazga qo‘shimcha 15 ta shtat birligi ajratilsin va uning tuzilmasida Raqamli targ‘ibot bo‘limi tashkil etilsin.

Markaz Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi bilan birgalikda ikki oy muddatda portalni ishga tushirish choralari ko‘rsin.

4. Markazning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo‘limlariga qo‘shimcha 2 tadan, tuman (shahar) bo‘linmalariga aholi soni 200 mingdan ortiq bo‘lganda 2 tadan, 200 mingdan kam bo‘lgan taqdirda esa 1 tadan qo‘shimcha shtat birliklari ajratilsin.

Belgilansinki, mazkur shtat birliklari mahalliy budjet hisobidan moliyalashtiriladi.

5. Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining:

“Ma‘naviyat targ‘ibotchisi” ta‘lim muassasasi negizida Markaz huzurida Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar institutini tashkil etish;

“Tafakkur” va “Ma‘naviy hayot” jurnallari hamda “Ma‘naviyat” nashriyatini Markaz tasarrufiga o‘tkazish to‘g‘risidagi takliflari ma‘qullansin.

“Ma‘naviyat” nashriyoti faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun asoslangan hisob-kitoblarga muvofiq Ma‘naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash maqsadli jamg‘armasi hisobidan bir oy muddatda 1 milliard so‘m miqdorida mablag‘ ajratilsin.

6. Quyidagilar:

Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining tarkibi [1-ilovaga](#) muvofiq;

Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining tashkiliy tuzilmasi [2-ilovaga](#) muvofiq;

Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining tuzilmasi [3-ilovaga](#) muvofiq;

Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo‘limlari namunaviy tuzilmalari [4-ilovaga](#) muvofiq;

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining tuman (shahar) bo'linmalarining namunaviy tuzilmalari [5-ilovaga](#) muvofiq;

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" [6-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

7. 2021-yil 1-yanvardan boshlab barcha umumta'lim muassasalarida yoshlar yetakchisi lavozimi 1 ta shtat birligi hisobida saqlanib kelinayotganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Ta'lim tashkilotlarida madaniy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi tartib joriy etilsinki, unga ko'ra:

har bir umumta'lim muassasasida joriy etilgan ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi lavozimini moliyalashtirish uchun 2021-yil 1-apreldan boshlab davlat budjeti mablag'lari hisobidan 0,5 shtat birligi ajratiladi hamda uning ish haqi miqdori umumta'lim muassasasi oliy ma'lumotli o'qituvchisi uchun o'rnatilgan bazaviy tarif stavkasi miqdorida belgilanadi;

davlat oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallarida, talabalar sonidan qat'i nazar, yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor (direktor o'rinbosari) lavozimi joriy etiladi. Bunda, oliy ta'lim muassasalarida mavjud yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor (direktor o'rinbosari) lavozimi qisqartiriladi.

8. Markaz, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining hududlarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlash, aholi, ayniqsa, yoshlar ongi va qalbida ma'naviy fazilatlarni yuksaltirish, oila va mahallalarda hamjihatlikni mustahkamlash maqsadida barcha tuman va shaharlarda Ma'naviyat va ma'rifat maskanini tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

2021 — 2023-yillarda Ma'naviyat va ma'rifat maskanlarini barpo etishning manzilli ro'yxati [7-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

Mazkur maskanlar yangi qurilishlar orqali yoki bo'sh turgan binolarda mahalliy budjet mablag'lari hisobidan tashkil etilishi belgilansin.

9. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi 2021/2022 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim tizimining tegishli ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalariga bakalavriat bosqichida "Ma'naviyatshunoslik", magistratura bosqichida "Kasbiy ma'naviyat" fanlari kiritilishini hamda magistratura ta'lim bosqichida "PR-menejer" mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlanishini yo'lga qo'ysin.

10. Innovatsion rivojlanish vazirligi Markaz bilan birgalikda ikki oy muddatda milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishida ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi doirasida maqsadli fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarni shakllantirsin va belgilangan tartibda moliyalashtirsin.

13. Toshkent shahar hokimligi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan birgalikda ikki oy muddatda "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati, "Ma'naviy hayot" va "Tafakkur" jurnallari tahririyatini joylashtirish uchun bino ajratish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga [8-ilovaga](#) muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlari [9-ilovaga](#) muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

16. Markaz Adliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

17. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil etish, uning ijrosi uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirishga shaxsiy javobgar etib Bosh vazir o'rinbosari B.A. Musayev va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining o'rinbosari D.M. Kenjayev belgilansin.

Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2021-yil 26-mart,
PQ-5040-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son qaroriga
1-ILOVA

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining

TARKIBI


- Sh.M. — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, *Respublika kengashi raisi*
Mirziyoyev
- A.N. Aripov — O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri, *Respublika kengashi raisi o‘rinbosari*
- Z.Sh. — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari, *Respublika kengashi raisi o‘rinbosari*
Nizomiddinov
- A.A. — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi
Abduvaxitov
- R.S. Qosimov — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi
- X.M. Sultonov — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi
- B.A. Musayev — O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari
- D.M. Kenjayev — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining o‘rinbosari
- A.A. Azizov — Davlat xavfsizlik xizmati raisi
- N.T. — Bosh prokuror
- Yo‘ldoshev
- T.A. Ishmetov — moliya vaziri
- P.R. — ichki ishlar vaziri
- Bobojonov
- A.X. Kamilov — tashqi ishlar vaziri
- B.N. Kurbanov — mudofaa vaziri
- R.K. Davletov — adliya vaziri
- A.X. — oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri
- Toshqulov
- Sh.X. — xalq ta’limi vaziri
- Shermatov
- A.V. Shin — maktabgacha ta’lim vaziri
- A.M. — sog‘liqni saqlash vaziri
- Xadjibayev
- O.A. — madaniyat vaziri
- Nazarbekov
- Sh.M. Sadikov — axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri
- I.Y. — innovatsion rivojlanish vaziri
- Abduraxmonov
- R.S. Mamatov — mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vaziri
- B.S. Yuldashev — Fanlar akademiyasi prezidenti
- A.B. — Badiiy akademiya raisi
- Nuriddinov
- M.B. Azimov — Davlat bojxona qo‘mitasi raisi
- Sh.D. — Davlat soliq qo‘mitasi raisi
- Kudbiyev
- A.T. Axmedov — Din ishlari bo‘yicha qo‘mita raisi
- R.D. Kurbanov — Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi raisi

- A.Z. — Yoshlar ishlari agentligi direktori
 Sa'dullayev
 A.A. Xodjayev — Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi bosh direktori
 F.F. — "O'zbekkino" Milliy agentligi bosh direktori
 Abduholiqov
 A.K. — Milliy axborot agentligi bosh direktori
 Ko'chimov
 A.Sh. — Davlat boshqaruvi akademiyasi rektori
 Bekmurodov
 Sh.Sh. — Islom sivilizatsiyasi markazi direktori
 Minovarov
 Q.M. Rafikov — O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi raisi
 A.D. Xadjayev — O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi raisi
 S.S. Saidov — O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi
 S. Turdiyev — "Nuroniylar" fondi raisi
 M.M. — Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari, *Respublika kengashi*
 Xojimatov *mas'ul kotibi*

Izoh: Respublika kengashi a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son qaroriga
 2-ILOVA

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining TASHKILY TUZILMASI



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son qaroriga
 3-ILOVA

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining TUZILMASI

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari

Yordamchi
1



Madaniyat, san'at va ijodiy tashkilotlar bilan ishlash bo'limi
4

Birinchi bo'lim
1


Devonxona
2

Boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni — 75nafar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son qaroriga
4-ILOVA

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'limlari

NAMUNAVIY TUZILMASI




Hududiy bo'limlar xodimlarining cheklangan soni — 80 nafar.

* yetakchi mutaxassis lavozimi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Farg'ona, Qashqadaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahar bo'limlarida joriy etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son qaroriga
5-ILOVA

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining tuman (shahar) bo'linmalari

NAMUNAVIY TUZILMASI



*aholi soni 200 mingdan oshgan tuman (shahar) bo'linmalarida joriy etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son qaroriga
6-ILOVA

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish bo'yicha
“YO‘L XARITASI”

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri tuman (shahar)lari hamda barcha vazirlik va idoralar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni namunali yo'lga qo'yish bo'yicha ilg'or tajribalarni ommalashtirish maqsadida an'anaviy tarzda “Eng namunali tuman” , “Eng namunali vazirlik” , “Eng namunali muassasa” tanlovlarini tashkil etish.	1. Hamkor vazirlik va idoralar vakillari ishtirokida tashkiliy qo'mitani tashkil etish. 2. Tanlov nizomini ishlab chiqish. 3. Tanlovni o'tkazish va g'oliblarni taqdirlash.	2021-yil aprel har yili oktyabr — dekabr oylarida	Ijrochilar mablag'lari	Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi (<i>Xojimatov</i>), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, davlat organlari va tashkilotlari
2.	Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzurida hududlar, vazirlik va idoralardagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar holatini muntazam o'rganish va tahlil etib borish bo'yicha doimiy faoliyat yurituvchi monitoring guruhini tashkil etish.	1. Yo'nalishlar bo'yicha ekspertlarni jalb qilgan holda monitoring guruhini tashkil etish. 2. Monitoring natijalari bo'yicha Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashiga tahliliy axborotlar kiritib borish.	2021-yil aprel doimiy	-	Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi (<i>Xojimatov</i>), tegishli vazirlik va idoralar
3.	21-oktabr — O'zbek tili bayrami kuni arafasida xorijiy olim va adiblar ishtirokida “O'zbek tili va adabiyotini jahon miqyosida targ'ib etish: natija	1. Ilmiy-amaliy anjumanni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita tarkibini shakllantirish. 2. Ilmiy-amaliy anjuman konsepsiyasi	2021-yil avgust sentyabr	Ijrochilar mablag'lari	O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti (<i>Mahmudov</i>), Yozuvchilar uyushmasi (<i>Saidov</i>), Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi (<i>Xojimatov</i>), Oliy va

	va vazifalar” mavzusida xalqaro ilmiy-ma’rifiy anjuman o’tkazish.	va dasturini ishlab chiqish. 3. Ilmiy-amaliy anjumanni o’tkazish va tavsiyalarini ishlab chiqish.	oktyabr		o’rta maxsus ta’lim vazirligi (<i>Toshqulov</i>)
4.	“Bolalarni ularning sog’lig’iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to’g’risida”gi Qonunning 8 — 11-moddalarida belgilangan vazifalar ijrosini va natijalarini tahlil qilish hamda xorijiy tajribani o’rganish, zarur hollarda, qonunga tegishli o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish bo’yicha taklif ishlab chiqish.	1. Qonun ijrosini o’rganish bo’yicha ekspertlar guruhini shakllantirish.	2021-yil may	-	Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (<i>Xodjayev</i>), Maktabgacha ta’lim vazirligi (<i>Shin</i>), Xalq ta’limi vazirligi (<i>Shermatov</i>), Adliya vazirligi (<i>Davletov</i>), Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi (<i>Xojimatov</i>)
2. Qonunning 8 — 11-moddalarida belgilangan vazifalar ijrosini va natijalarini o’rganish hamda tahlil qilish.		iyun-iyul			
3. Tahlil natijalari asosidatakliflar tayyorlash.		avgust			
5.	Barcha mahallalarni qamrab oluvchi markazlashgan kutubxonalar tizimini manfaatdor vazirlik va idoralar hamkorligida yaratish bo’yicha imkoniyatlarni o’rganish va Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.	1. Manfaaddor idoralar hamkorligida markazlashgan kutubxonalar tizimini yaratish bo’yicha imkoniyatlarni o’rganish.	2021-yil aprel — iyun	-	Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (<i>Xodjayev</i>), Mahalla va oilani qo’llab-quvvatlash vazirligi (<i>Raxmatov</i>), Yoshlar ishlari agentligi (<i>Sa’dullayev</i>), Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi (<i>Xojimatov</i>)
2. Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.		iyul			
6.	Oliy ta’lim muassasalari talabalari, doktorant va izlanuvchilarini qo’llab-quvvatlashga qaratilgan “Uchinchi Rennans — yoshlar nigohida” nomli loyihalar tanlovini an’anaviy tarzda o’tkazish.	1. Tanlov nizomini ishlab chiqish va tashkiliy qo’mitani shakllantirish.	2021-yil may	Ijrochilar mablag’lari	Yoshlar ishlari agentligi (<i>Sa’dullayev</i>), Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi (<i>Toshqulov</i>), Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi (<i>Xojimatov</i>)
2. Tanlovni har yili an’anaviy tarzda o’tkazib borish. 3. Tanlov g’oliblari takliflarini amaliyotga tatbiq etish choralarini ko’rish.		doimiy			
7.	Markazning hududiy bo’lim va bo’linmalarini zarur xizmat xonalari,	1. Markazning hududiy bo’lim va bo’linmalarida mavjud moddiy-	2021-yil aprel	Mahalliy budjet mablag’lari	Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent

	avtotransport, mebel jamlanmasi, kompyuter texnikasi, aloqa vositalari va Internet tarmog‘i bilan ta’minlash.	texnika bazasini xatlovdan o‘tkazish. 2. Xatlov natijasiga ko‘ra mavjud ehtiyojni va talab etiladigan mablag‘larni aniqlash.			shahar hokimlari, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi (<i>Xojimatov</i>)
		3. Markazning hududiy bo‘lim va bo‘linmalarini zarur moddiy-texnika vositalari bilan ta’minlash.	avgust		
8.	Milliy davlatchiligimiz tarixi, buyuk ajdodlarimizning boy ma’naviy merosini o‘rganish, ularning insonparvarlik g‘oyalari hayotga keng tatbiq etish bo‘yicha qo‘shma dastur ishlab chiqish. Dasturda birinchi va ikkinchi Renessans davrlari namoyandalari hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazishni nazarda tutish.	1. Ishchi guruhni shakllantirish va qo‘shma dastur ishlab chiqish. 2. Har bir Renessans davri uchun yo‘nalishlar bo‘yicha o‘tkaziladigan ilmiy-amaliy anjumanlar materiallarini to‘plam holida nashr etish va tarqatish.	2021-yil may	Ijrochilar mablag‘lari	Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi (<i>Xojimatov</i>), Tarix instituti (<i>Ziyo</i>), O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi (<i>Ismoilova</i>), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (<i>Toshqulov</i>), Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi (<i>Xasanov</i>)
9.	“Amir Temur — dunyo olimlari va adiblari nigohida” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil qilish.	1. Konferensiyani o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mitani shakllantirish hamda konferensiya dasturi va ramziy belgisini ishlab chiqish. 2. Konferensiyani Qashqadaryo viloyatida o‘tkazish.	2021-yil aprel	Ijrochilar mablag‘lari	Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi (<i>Xojimatov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>), Madaniyat vazirligi (<i>Nazarbekov</i>), Tashqi ishlar vazirligi (<i>Komilov</i>), Qashqadaryo viloyat hokimligi (<i>Mirzayev</i>)
10.	“Jaloliddin Manguberdi tarixining yangi sahifalarini o‘rganish”	1. Konferensiyani o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mitani shakllantirish hamda konferensiya dasturi	2021-yil may	Ijrochilar mablag‘lari	Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi (<i>Xojimatov</i>), Fanlar akademiyasi (<i>Yuldashev</i>),

	mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil qilish.	va ramziy belgisini ishlab chiqish. 2. Konferensiyani Xorazm viloyatida o'tkazish. 3. Jaloliddin Manguberdi to'g'risida tarixiy-hujjatli film yaratish va anjuman doirasida namoyish etish.				Madaniyat vazirligi (<i>Nazarbekov</i>), Tashqi ishlar vazirligi (<i>Komilov</i>), Xorazm viloyat hokimligi (<i>Ermonov</i>)
11.	“Jadid ma’rifatparvarlari g’oyalari yosh avlod tarbiyasida foydalanish” mavzusida innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish.	1. Tadqiqotchilar guruhini shakllantirish. 2. Innovatsion tadqiqot loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish. 3. Ilmiy-amaliy va innovatsion tadqiqot ishlari bo'yicha muhokamalar, davra suhbatlari, amaliy seminarlar o'tkazish.	2021-yil may — dekabr	-		Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi (<i>Xojimatov</i>), Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi (<i>Xasanov</i>), Tarix instituti (<i>Ziyo</i>), Yozuvchilar uyushmasi (<i>Saidov</i>)
12.	“Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” asosida ta’lim tizimining barcha bo’g’inlarida uzluksiz tarbiyani yo’lga qo’yish maqsadida chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish.	1. Hamkor vazirlik va idoralar vakillaridan iborat ishchi guruhni shakllantirish. 2. Dastur loyihasini tayyorlash va kelishish. 3. Dasturni tasdiqlash va uni amalga oshirishga bag'ishlangan ilmiy-amaliy seminarlar tashkil etish. 4. Dastur ijrosi bo'yicha doimiy monitoringni yo'lga qo'yish.	2021-yil aprel	-		Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi (<i>Xojimatov</i>), Maktabgacha ta’lim vazirligi (<i>Shin</i>), Xalq ta’limi vazirligi (<i>Shermatov</i>), Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi (<i>Toshqulov</i>)
13.	Ilm-fan, san’at va madaniyat, axborot texnologiyalari, badiiy ijod, arxitektura va dizayn, tadbirkorlik va hunarmandchilik kabi turli sohalarida faoliyat yuritayotgan, tashabbuskor va fidoyi yoshlar o’rtasida	1. Loyihani amalga oshirish tartibi, asosiy yo’nalishlarini belgilash. 2. Tashkiliy qo'mita va har bir yo'nalish bo'yicha ishchi guruhlarini shakllantirish.	2021-yil may	-		Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi (<i>Xojimatov</i>), Yoshlar ishlari agentligi (<i>Sa’dullayev</i>), Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi (<i>Toshqulov</i>), Madaniyat vazirligi (<i>Nazarbekov</i>), Badiiy akademiya

	“Vatan taraqqiyotiga mening hissam” loyihasini amalga oshirish.	3. Loyihani amalga oshirish.	doimiy		(Nuriddinov), Yozuvchilar uyushmasi (Saidov)
14.	Milliy tarbiya an’analari, vositalari, shakllarini o’rganish bo’yicha olib borilgan tajribalar, to’plangan tarbiyaviy meros asosida ko’p jildli “Milliy tarbiya ensiklopediyasi” ni yaratish.	1. Mualliflar guruhini tuzish. 2. Milliy tarbiya namunalarini o’rganish bo’yicha etnopedagogik ekspeditsiyalar dasturini ishlab chiqish. 3. Ekspeditsiya natijalari bo’yicha ko’p jildli “Milliy tarbiya ensiklopediyasi”ni nashrga tayyorlash, chop etish hamda shu asosda multimedia mahsulotlari va mobil ilovalar turkumini yaratish.	2021 — 2025-yillar	Ijrochilar mablag’lari	Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi (Xojimatov), Maktabgacha ta’lim vazirligi (Shin), Xalq ta’limi vazirligi (Shermatov), Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi (Toshqulov)
15.	“Ma’naviyat lug’ati” ning to’ldirilgan yangi nashrini yaratish.	1. Ijodiy guruh tuzish. 2. Ma’naviyat va ma’rifat sohasiga oid ma’lumotlar bazasini shakllantirish. 3. Yangi tahrirdagi lug’atni tayyorlash va chop etish.	2021-yil may	Ijrochilar mablag’lari	Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi (Xojimatov), Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi (Toshqulov)
16.	Temurbeklar maktablarida Sohibqiron Amir Temurning mardona ruhi, jasorati, sarkardalik mahorati, Vatanga bo’lgan buyuk sadoqati, yuksak ma’naviy fazilatlarini yoshlar ongi va qalbiga singdirishga qaratilgan turkum tadbirlarni tashkil etish.	1. Tadbirlar ssenariysi, ko’rgazmali vositalar tayyorlash. 2. Tadbirlarni o’tkazish.	2021-yil iyun	-	Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi (Xojimatov), Mudofaa vazirligi (Kurbanov), Ichki ishlar vazirligi (Bobojonov), Favqulodda vaziyatlar vazirligi (Qo’ldoshev), Milliy gvardiya (Djurayev)
17.	“Ma’naviyat” nashriyotini	1. Nashriyotni Respublika	2021-yil aprel	-	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi

	Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tasarrufiga o'tkazish va uning faoliyatini rivojlantirish choralari ko'rish.	Ma'naviyat va ma'rifat markazi tasarrufiga o'tkazish. 2. Nashriyotni xususiylashtiriladigan davlat aktivlari ro'yxatidan chiqarish. 3. Nashriyotni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish.			(Ortiqov), Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi (Xojimatov)
18.	"Ma'naviyat targ'ibotchisi" ta'lim muassasasi negizida Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutini tashkil etish.	1. Institutni tashkil etish bo'yicha tegishli qaror loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2021-yil mart	-	Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi (Xojimatov), Moliya vazirligi (Ishmetov)
		2. Institutning ta'xis hujjatlarini qabul qilish	aprel		
19.	Internetning milliy segmentini aholining turli yosh guruhlari uchun qiziqarli axborot resurslari va dasturlar bilan boyitish.	1. Milliy axborot resurslarini kengaytirishga qaratilgan dasturni shakllantirish.	2021-yil may	Ijrochilar mablag'lari	Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (Xodjayev), Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi (Xojimatov)
		2. Internetning milliy segmentini bilan boyitib borish.	dastur asosida		
20.	Yurtimiz tarixi, madaniy merosimiz, odob-axloq qoidalari, milliy qadriyatlar, ezgu fazilat va an'analarni yosh avlod qalbiga singdirish maqsadida bolalarning qiziqishi va yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, qisqa metrajli animatsion multimedia mahsulotlari, mobil ilovalarni yaratish.	1. Innovatsion loyihalar mavzularini shakllantirish. 2. Loyihalarni amalga oshirish bo'yicha tanlov e'lon qilish.	2021-yil aprel-may	Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi	Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi (Xojimatov), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov), "O'zbekkino" Milliy agentligi (Abduxalikov), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sadikov)
		3. Tanlov asosida qisqa metrajli animatsion multimedia mahsulotlari, kompyuter o'yinlari, mobil ilovalarni yaratish.	2022-yil fevral		
21.	"O'zbekistonda 2021 — 2030-yillarda tarix fanini rivojlantirish konsepsiyasi" loyihasini tayyorlash	1. Konsepsiya loyihasini ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruh tuzish.	2021-yil aprel	Ijrochilar mablag'lari	Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Toshqulov)
		2. Konsepsiya loyihasini ishlab chiqish va manfaatdor	iyun		

	va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	tashkilotlar bilan kelishish.			
		3. Konsepsiya loyihasini belgilangan tartibda Fan va texnologiyalar bo'yicha respublika kengashi tomonidan tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	iyul		
22.	Buyuk mutafakkirlarimizning ilmiy-ma'rifiy va madaniy merosini o'rganish yuzasidan fundamental ilmiy-tadqiqot ishlarini yo'lga qo'yish, ularning natijalari asosida ilmiy-ommabop kitob va risolalarni nashrga tayyorlash, chop etish va keng ommaga yetkazish.	1. Tegishli chora-tadbirlar loyihasini ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruh tuzish.	2021-yil may	Ijrochilar mablag'lari	Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Toshqulov), Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov), Din ishlari bo'yicha qo'mita (Axmedov)
		2. Chora-tadbirlar loyihasini ishlab chiqish va manfaatdor tashkilotlar bilan kelishish.	iyul		
		3. Kelishilgan chora-tadbirlar loyihasini belgilangan tartibda Fan va texnologiyalar bo'yicha respublika kengashi tomonidan tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	avgust		

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son qaroriga
7-ILOVA

2021 — 2023-yillarda Ma'naviyat va ma'rifat maskanlarini barpo etishning manzilli

RO'YXATI

T/r	Hududlar	Barpo etiladigan maskanlar soni	shundan:		
			2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	16	4	6	6
2.	Andijon viloyati	17	4	7	6
3.	Buxoro viloyati	13	3	5	5
4.	Jizzax viloyati	13	3	5	5
5.	Navoiy viloyati	11	3	4	4
6.	Namangan viloyati	13	3	5	5
7.	Samarqand viloyati	16	4	6	6
8.	Sirdaryo viloyati	11	3	4	4
9.	Surxondaryo viloyati	15	3	6	6

10.	Toshkent viloyati	22	6	8	8
11.	Toshkent shahar	1	1		
12.	Farg‘ona viloyati	19	5	7	7
13.	Qashqadaryo viloyati	15	3	6	6
14.	Xorazm viloyati	13	3	5	5
Jami		195	48	74	73

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son qaroriga
8-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga kiritilayotgan

O‘ZGARTIRISH VA QO‘SHIMCHALAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-son qarori 7-bandining to‘rtinchi xatboshisidagi “Markaz xodimlariga” so‘zlari “Markaz, uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo‘limlari xodimlariga” so‘zlari bilan almashtirilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son qarori 10-bandining ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“oliy ta’lim muassasalarining yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektori faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash va sport masalalari bo‘yicha maslahatchisi bo‘linmalariga yuklanadi”.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son qarori 11-bandida:

uchinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

to‘rtinchi — oltinchi xatboshilar tegishincha uchinchi — beshinchi xatboshilar deb hisoblansin;

uchinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2021-yilda tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limlari xodimlari yillik ish haqi fondining 25 foiziga, 2022-yildan boshlab esa — 50 foiziga teng miqdordagi mablag‘lar”;

beshinchi xatboshidan “b) umumta’lim muassasalari direktorlarini moddiy qo‘llab-quvvatlash uchun” so‘zlari chiqarib tashlansin;

quyidagi mazmundagi oltinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Xalq ta’limi xodimlarini rag‘batlantirish jamg‘armasining mablag‘lari tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limi xodimlari, jumladan metodistlari hamda umumta’lim muassasalari direktorlarini moddiy qo‘llab-quvvatlash tadbirlariga yo‘naltiriladi”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son qaroriga
9-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlari

RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-son qarori 5-bandi va qarorga 1 — 4-ilovalar.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son qarori 3 va 10-bandlari hamda qarorga 2-ilova.

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021-y., 07/21/5040/0243-son)